VILOYAT SEKTOR RAHBARLARI JAMOASI – HOKIM KUBOGI SOHIBI



Ishtixon tumani sektor rahbarlari urgutlik hamkasblaridan ustun keldi - 2:0.

Musobaqaning taqdirlash marosimida viloyat hokimi Erkinjon Turdimov ishtirok etib, bu kabi musobaqalar davlat xizmatchilar va rahbar xodimlari o'ttasida sog'lon turmush tarzini keng targ'ib qilish, ularning hamkorligini yanada mustahkamlashga xizmat qilishini hamda bunday sport tadbirlarini muntazam tashkil qilish kerakligini ta'kidladi.

G'olib jamoalarga kubok va esdalik sovg'alar topshirildi, shuningdek, ishtirokchilar "Eng yaxshi to'purar", "Eng yaxshi darvozabon", "Eng yaxshi himoyachi" nominatsiyalari bo'yicha taqdirlandi.

Ochiq tanlov

shaffof o'tishi zarur

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan "Davlat fuqarolik xizmatchilar vakant lavozimlarining yagona ochiq portal" - <https://vacancy.argos.uz/> platformasi tashkil etilgan. Ushbu portal orqali davlat fuqarolik xizmatiga ochiq tanlov asosida ishga kirish uchun barcha fuqarolarimiza teng imkoniyatlar yaratildi.

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi viloyat filiali tomonidan tanlovlarning ochiq va shaffof o'tkazilishini nazoratga olib, tegishli davlat organlari rahbar va mas'ul xodimlarining mas'uliyatini yanada oshirish maqsadida o'quv-seminarlar tashkil etib kelinmoqda.

Yaqinda o'tkazilgan shunday o'quv-seminarda viloyat va tuman (shahar) hokimliklari tashkiliy kadrlar guruhi rahbarlar hamda viloyatdagi 40 dan ortiq davlat organlari va muassasalarining rahbarlari, Inson resurslarini boshqarish bo'limi mas'ullari ishtirok etdi.

Dastlab Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi viloyat filiali mas'ul xodimlari tomonidan o'tgan davr mobaynida mahalliy hokimliklari va davlat organlarida o'tkazilgan ochiq tanlovlari, tanlov yuzasidan o'tkazilgan monitoringlar natijasida aniqlangan qonun buzilishi holatlari va ularni bartaraf etish yuzasidan ko'rildan ta'sir choralar bo'yicha ma'lumot berildi. Jumladan, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunning 26-moddasiga asosan, ochiq tanlovlarning belgilangan tartib bo'yicha o'tkazilishi yuzasidan



viloyat tashkilotlari hamda mahalliy hokimliklarda 61 marta monitoring o'tkazilib, 61 ta taqdimnomma va 21 ta ogohlantirishlar kiritildi. Monitoring natijasi bo'yicha tashkilot rahbarlari va kadrlar xizmati rahbarlarga 15 ta ma'muriy jarima qo'llanildi. Kadrlar xizmati rahbarlaridan 8 nafari egallab turgan lavozimidan ozod etildi, 6 nafariga "Hayfsan" intizomi chorasi qo'llanildi.

Seminarda ochiq tanlovlari va tanlov jarayonlarida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish, suhbat bosqichini tashkil etish va o'tkazish tartibi, uni yanada takomillashtirish, shaffofligini ta'minlash, ochiq tanlovlarga kiritilgan o'zgarishlar, tizimdagi yangiliklar to'g'risida so'z yuritildi.

O'quv-seminar ishtirokchilariga amaliyotda ko'p uchraydigan va ko'plab savollar kelib chiqishiga sabab bo'layotgan muammolarning yechimi bo'yicha tavsiyalar berildi.

B.YO'LDSOSHEVA,
Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi
viloyat filiali inspektori.

Matbuot uyida bo'lib o'tgan anjumanida viloyat transport boshqarmasi boshlig'i A.Ashurov 2030-yilgacha jamoat transportida amalga oshiriladigan o'zgarishlar haqida ma'lumot berdi. Rossiyaning "Simetra" xorijiy korxonasi tomonidan Samarqand shahar transport infotuzilmasini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan rejaga ko'ra, 43 ta yangi avtobus yo'nalishlari, jumladan, 8 ta magistral va 35 ta yetkazib beruvchi yo'nalishlar tashkil etiladi.

JAMOAT transportida nima o'zgaradi?



- Xitoydan olib kelganan 100 ta avtobusning 75 tasi o'nga yaqin yo'nalishlarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatib kelmoqda, - deydi Akobir Ashurov. - 2024-yil 1-yanvardan boshlab avtobus haydovchilaridan kunlik tushum talab qilinmaydi. Chunki ular brutto – shartnomasi asosida ishlash tizimiga o'tadi. Ya'ni, bosit o'tilgan masofa va yo'lovchilarga sifatlari xizmat ko'rsatilgani uchun to'lov tizimi yo'lg'a qo'yiladi. Endi jamoat transporti tong soat 6:00da yo'nalishga chiqib, kech soat 20:00 gacha harakatlanib, so'nggi yo'lovchini ham o'z manziliga yetkazib qo'yishga majbur bo'ladi. Avtokorxonalarining ortiqcha xarajatlari maxsus jamg'arma hisobidan qoplab beriladi. Hozirda deyarli barcha avtobuslarda to'lovlar ATTO elektron to'lov tizimi orqali amalga oshirilayoti. Ularning harakatlari GPS trekerlari bilan nazorat qilib borilmoqda.

Shu paytgacha transport boshqarmasi qoshida faoliyat ko'rsatgancha maxsus trans nazoratchilar guruhi boshqarma ixtiyoridan alohida inspeksiya bo'lib ajralib chiqdi. Endi ular mustaqil faoliyat yuritishadi. Chiptasiz yo'lovchilar avtobuslarga chiqarilmaydi, borligi aniqlansa, jarima to'lashadi. Haydovchilar ham chiptasiz yo'lovchilarni olib yurgani uchun jarimaga tortilishi ko'zda tutilgan.

- Bugungi kunda viloyatimizda 15 mingdan ortiq yo'nalishsiz taksi harakatlanmoqda, - deydi boshqarma boshlig'i. - Bir yil ilgari noqonuniy kirakashlik qilib kelgan fuqarolar yo'lovchi tashish bilan o'zini o'zi band qilish tizimiga o'tgach, ularning soni ko'payib ketdi. Biroq viloyatimiz hududida haligacha 2-3 mingga yaqin noqonuniy kirakash faoliyat yuritmoqda. Yangi tashkil etilgan inspeksiya xodimlari ularni aniqlab, huquqbozlarliklarning oldini olishga harakat qiladi.

Matbuot anjumanida "Yashil shahar" loyihasi asosida YTTB mablag'lari hisobidan Samarqand shahriga 350 dona elektrobuslar olib kelinib, yo'nalishlarga qo'yilishi haqida ham ma'lumot berildi.

Dilmurod TO'XTAYEV.



QO'RIQXONADA TALABALAR UCHUN SAYYOR DARSLAR

Joriy o'quv yilidan boshlab Samarqand xalqaro texnologiya universiteti professori Randey Vernon tomonidan Zarafshon milliy tabiat bog'iда talabalar uchun sayyor darslar tashkil etilmoqda.

Sayyor darslar universitet qoshiqliki tabiatshunoslar klubi tashabbusi bilan o'tkazilmoqda.

Klub o'z a'zolari e'tiborini dunyodagi ekologiya muammolari, yurtimizning tabiyi boyliklari, hayvonot dunyosini chuqurroq o'rganishga qaratadi. Shuningdek, atrof-muhitni saqlashga global miyoysida e'tibor kuchayib borayotganini inobatga olib, talaba-yoshlarni mamlakatimiz tabiiy resurslarini himoya qilishga intil-

Viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig'i o'rinosbosari Umid Ahrorov va boshqarma mutaxassisleri ishtirokida kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish, aholi o'ttasida is gazidan zaharlanish hamda gaz-havo aralashmasi chaqナashining oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga bag'ishlangan matbuot anjuman bo'lib o'tdi.

Mavsumga qanday tayyorgarlik ko'rilmoxda?

Ta'kidlanishicha, kuz-qish mavsumida aholining xavfsizligini ta'minlash, odamlarning hayoti va sog'lig'iga hamda moddiy boyliklari zarar yetkazishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarining oldini olish maqsadida haftaning har chorshanba va shanba kunlari profilaktik tadqiblar o'tkazilmoqda va bunga boshqarmaning 342 nafar xodimi jaib etilgan.

- Joriy yilning 11-oktabriga qadar viloyatdagi 95 ta xususiy uy-joy mulkdorlar shirkatlarining barchasida va 991 mahallada mavsumga tayyorgarlik ishlari o'rganildi, - deydi U.Ahrorov. - Natijada 2214 ta ko'p xonadonli uylarning 1460 tasi tekshirildi. Yonq'in sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lgan 795 ta foydalishni taqilangan nosoz elektr moslama va agre-gatlar uzbib qo'yildi.

Aholi turarjoylarida va boshqa

davlat tasarrufidagi obyektlarda o'tkazilgan tekshiruvlar natijasida xavfsizlik qoidalarini buzgan 116 nafar shaxs 31 million so'm miqdorida ma'muriy jarimaga tortildi. Yonq'in sodir bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lgan 795 ta foydalishni taqilangan nosoz elektr moslama va agre-gatlar uzbib qo'yildi.

Boshqa davlat tasarrufidagi obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash borasidagi kamchilik va muammolar bo'yicha viloyat, shahar va tuman hokimliklari, hududiy gaz ta'minoti, elektr ta'minoti idoralari hamda huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga ma'lumotnomma va taqdimnomalar kiritilgan.



Prokuror nazorati



O'RMON XO'JALIKLARIDAGI QONUNBUZARLIKlar FOSH ETILDI

Bugungi kunda ekologiya bilan bog'liq muammolar global ko'rinish kasb etib, muayyan sharoitga moslashgan bir butun ekotizim yo'qolib ketishiga olib kelayotgani va bunga, birinchi navbatda, antropogen omillar sabab bo'layotgani barchamizni tashvishiga solmoqda.

Insoniyat tamaddunining barcha bosqichlarda sayyoramiz tabiiy boyliklari, hayvonot va nabotot olami inson hayotiy faoliyati uchun zarur ehtiyoj manbai bo'lib kelgan. Texnika va texnologiya, sanoat yuqori darajada rivojlangan XXI asrda ekologiya, bioxilma-xillikni asrash, tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq muammolar bir mintaqaga yoki bir mamlakatgagina emas, balki butun koinotga o'zing salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Samarqand viloyati prokuraturasi tomonidan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ijrosi bo'yicha muayyan ishlardan amalga oshirildi.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha Samarqand viloyati prokuraturasi tashabbusi bilan bir qator idoralor hamkorligida qo'shma qaror qabul qilindi.

Qaror asosida doimiy ishllovchi idoralararo shtab faoliyati yo'lg'a qo'yildi. Shtab tomonidan o'tkazilgan o'rganishlarda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiyi resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat bo'yicha ko'plab qonun buzilish holatlari aniqlanib, aybdorlarga nisbatan tegishli choralar ko'rilmoga.

Viloyat prokuraturasi organlari tomonidan davlat o'rmon fondi yerlарини ажратишадан qonunchilik talablariga rivoj berilishi ustidan nazorat tadbirleri olib borilmoga.

Samarqand viloyatida 10 ta o'rmon xo'jaligi va 2 ta milliy tabiat bog'i mavjud bo'lib, ular foydalanishiga 69 ming 87 hektar (shundan, o'rmon bilan qoplangan 20 ming 410 hektar, o'rmon bilan qoplanmagan 460 hektar, cho'l hududi 2518 hektar, tog'lud 35 ming 874 hektar, to'qay xududi 8821 hektar, tabiyi va sun'iy suv havzalarini 1306 hektar) yetkiztilib berilgan. Bu yer maydonlarining ma'lum bir qismi davlat-xususiy sherikchilik asosida fuqarolarga uzoq muddatli ijaraga berish bilan bog'liq hujjatlar dastlabki xatlovdan o'tkazildi.

Biroq yer maydonlaridan noqonuniy foydalanish, ijaraga berilgan yer maydonlarida o'zboshimchalik bilan qurilishlar qilish, ijara mablag'lari undirilmaganligi, investitsiya majburiyatlarining bajarilmasligi hamda butalar va o'simliklarni nobud qilish kabi qo'pol qonun buzilish holatlari sodir etilgan.

Viloyat prokuraturasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va o'rmon xo'jaligi sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'limi tomonidan mutaxassislar jalb qilingan holda O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiyi hududlar to'g'risida"gi Qonuni talablariga rivoj qilinishi ahvoli yuzasidan o'tkazilgan o'rganishda Zarafshon milliy tabiat bog'i mansabdar shaxslari o'z vakolatlarini suisite'mol qilib, davlat manfaatlariga juda ko'p miqdorda zarar yetkazish holatlari yo'lli qo'yanliklari aniqlandi.

Chunonchi, qonunning 6, 25-moddalarida belgilangan muhofaza etiladigan tabiyi hududlarning yer uchastkalari faqatgina xususiy buyurtma qo'riqxonalar hamda tabiyi pitomniklar tashkil etish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga ijara berilishi mumkinligi hamda butalarni kesish, muhandislik-kommunikatsiya ishlarni amalga oshirish, oqova ushlarni oqizish taqiqlanganligi haqidagi talablar buzilgan. 2020 va 2021-yillarda milliy tabiat bog'i hududidan 39,8 hektar yer maydoni 57 nafr jismoniy va yuridik shaxslarga ijara bitimi va shartnomalarga asosan dam olish maskani uchun ajratish berilib, 28 nafr ijarachi tomonidan 8015 kvadrat metr yer uchastkasidagi butalar va o'simlik duniyosi nobud qiliishi, noqonuniy ravishda qurilish ishlari amalga oshirilishiha yo'l qo'yilgan.

Ijara bitimi va shartnomalarda 57 nafr jismoniy va yuridik shaxslarga milliy tabiat bog'iidan 33,3 hektar yer maydoni ijara berilishi ko'rsatilgan bo'lsa-da, Zarafshon milliy tabiat bog'i mansabdar shaxslari mansabga sovuqqonlik bilan qarab, jami 39,8 hektar yoki shartnomada belgilangan dan 6,5 hektar ziyod yer maydonini noqonuniy ajratib bergen.

Zarafshon milliy tabiat bog'i bilan 72 nafr jismoniy va yuridik shaxslar o'tasida tuzilgan ijara bitimi va shartnomalarda ijarchilarga 37 million 611 million so'm investitsiya kiritish majburiyat yuklatilgan bo'lsa-da, milliy tabiat bog'i mansabdar shaxslari tomonidan majburiyatlarining bajarilishi nazorat qilinmaganligi natijasida investitsiyalar kiritilishi ta'minlanmagani.

Zarafshon milliy tabiat bog'i mansabdar shaxslari o'z vazifalariga loqaylidan bilan munosabatda bo'lishi oqibatida 2023-yil 1-avgust holatida 72 nafr ijaraqidan jami 972 million 155 ming so'm ijara pularini undirish choralar ko'rilmagan.

Bundan tashqari, bog' mansabdar shaxslari tomonidan yuqoridagi qonunning 45-moddasasi tabalari uchun zid ravishda milliy tabiat bog'i hududidan 115,6 hektar yer maydoni qishloq xo'jalik ekinlari ekish uchun fuqarolarga ajratib berilgan.

Mansabdar shaxslarning mansab vakolatlaridan qasddan foydalanish hamda mansabga sovuqqonlik bilan qarashlari oqibatida davlat va jamoat manfaatlariga juda ko'p miqdorda zarar va jiddiy ziyon yetkazganligi holati yuzasidan viloyat prokuraturasi tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari o'tkazilmoqda.

Zarafshon milliy tabiat bog'i o'tkazilgan o'rganishda dam olish maskani yaratish maqsadida 49 yil muddatga ijara qolning 18,93 hektar yer maydonlarida 22 nafr fuqaro va 2 ta yuridik shaxs tomonidan imorat qurish uchun zarur ruxsatsizma olmasdan og'ir konstruksiyali bino-inshotlarni qurilganligi aniqlanib, ogholantirilishiga qaramasdan ixтиyoriy buzmaganliklari sababli inshootlarning barchasini buzish yuzas-

Yillik mehnat ta'tillari

QAY TARTIBDA HISOBLANMOQDA?

Joriy yilning 30-apreldidan yangi tahrir-dagi Mehnat kodeksi amaliyatga joriy qilindi. Mazkur kodeksning 14-bob, 4-§, 216-235 moddalarida "Har yilgi mehnat ta'tili" bo'yicha normalar belgilangan.

Unga ko'ra, har yilgi mehnat ta'tili dam olish va ishslash qobiliyatini tiklash uchun ish o'rni (lavozimi) hamda o'rtacha ish haqi saqlab qolilgan holda xodim ishdan ozod etiladigan, xodimga har yili ish yili davomida beriladiqan vaqt davridir. Uning turlari quyidagilardan iborat: asosiy mehnat ta'tili (har yilgi asosiy eng kam yoki har yilgi asosiy uzaytirilgan); qo'shimcha mehnat ta'tili.

Har yilgi asosiy eng kam mehnat ta'tilining davomligi 21 kalender kunni tashkil etadi. Bu muddatdan kam ta'til berilishi mehnat qonunchiliqiga talabini buzish hisoblanadi.

HAR YILGI ASOSIY UZAYTIRILGAN TA'TIL:

Bundan tashqari, Kodeksda har yilgi asosiy uzaytirilgan ta'tillar muddatları belgilangan bo'lib, una ko'ra: yoshi va sog'lig'ining holati hisobga olingan holda har yilgi asosiy uzaytirilgan ta'til beriladi:

18 yoshgacha bo'lgan shaxslerga - 30 kalender kun;

I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlarga - 30 kalender kun.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari xodimlariga davomligi 27 kalender kun bo'lgan har yilgi asosiy uzaytirilgan ta'til beriladi, bundan davlat xodimlarining aymal toifalari uchun qonunda har yilgi asosiy uzaytirilgan ta'tilning uzozroq davomligi belgilangan hollar mustasno.

HAR YILGI QO'SHIMCHA TA'TILLAR:

Mehnat kodeksi bo'yicha quyidagi hollarda har yilgi qo'shimcha ta'tillar: mehnat sharotlari noqulay ishlarda band bo'lgan xodimlarga; noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarda ish bajarayotgan xodimlarga; bitta tashkilotda yoki tarmoqda ko'p yillik ish stajiga ega bo'lgan xodimlarga; qonunchilikda, jamoa Kelishuvlarida, shuningdek, jamoa shartnomasida, ichki hujjatlarda, mehnat shartnomasida nazarda tutilgan boshqa hollarda beriladi.

Mehnat kodeksining 220-moddasasiga asosan, xodimga u bitta tashkilotda yoki tarmoqda ishlagan har 5 yil uchun davomligi 2 kalender kun bo'lgan, biroq jami 8 kalender kundan ko'p bo'lgan har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tili beriladi.

Misol uchun, xodimning ushbu tashkilotda yoki tarmoqda ishlagan har 5 yil ish stajiga 2 kalender kun, 10 yil ish stajiga 4 kalender kun, 15 yil stajiga 6 kalender kun, 20 yil va undan ortiq ishlagan ish stajiga 8 kalendar kun har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tili beriladi.

Qonunchilikda, jamoa Kelishuvlarida, shuningdek, jamoa shartnomasida, boshqa ichki hujjatlarda yoki mehnat shartnomasida ushbu 220-moddasasi birinchi qismida nazarda tutilgan har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tili olish huquqini beruvchi ish stajiga boshqa ish beruvchidagi yoxud boshqa tarmoqdagisi ish stajini kiritish nazarda tutilishi mumkin.

TA'TILLAR DAVOMIYLIGINI HISOBLAB CHIQARISH:

Amaldagi Mehnat kodeksida ta'til muddatlarini kalendar kundarda hisoblanishi belgilandi. Eski Mehnat kodeksida ta'til muddatları ish kunida hisoblanardi, bunda haftaning yakshamba kuni ta'til muddatini hisoblashda inobatga olinmas edi. Ya'ni, endi xodimlarning har yilgi asosiy va qo'shimcha mehnat ta'tillarining davomligi kalendar kundarida hisoblab chiqariladi.

Har yilgi mehnat ta'tili davriga to'g'ri keladigan ishlanmaydigan bayram kunlari mehnat ta'tillarining davomligini belgilashda hisobga olinmaydi.

Barcha hollarda qonunchilik bilan belgilangan



ta'tillarni jamlashda ularning davomiyligi bir ish yili uchun 56 kalendar kundan oshil ketishi mumkin emas.

Ishning birinchi yili uchun har yilgi mehnat ta'tili quyidagi to'fadagi qonunchilarga ishlab berilgan vaqtiga mutanosib ravishda haq to'langan holda to'liq davomiylikda beriladi:

har yilgi mehnat ta'tili o'quvchilarining qo'shimcha tashkilotlari tashkil etiladi. Ushbu to'fadagi xodimlarning ikkinchi va keyingi ish yillari uchun har yilgi mehnat ta'tili to'liq hajmda haq to'lanadi;

birinchi ish yilda olti oydan kam ishlagan o'rindoshlarga - asosiy ish bo'yicha har yilgi mehnat ta'tili bilan bir vaqtida mehnat ta'tili berilganda.

MEHNAT TA'TILINI HISOBLASHDA XODIMNING ISH YILI

Ish beruvchilar tomonidan xodimlarga yillik mehnat ta'tili berish uchun ish yilini hisoblashda xatoga yo'l qo'yish xolatlari ko'p kuzatilmoqda.

Ish yili deganda xodimning muayyan ish beruvchida o'n ikki oyga teng bo'igan va haqiqatda ish boshlangan sanadan e'tiboran hisoblab chiqariladigan ish davri tushuniladi.

Misol uchun, xodim 2015 yil 4 avgustdan ishga qabul qilingan bo'lsa, ushbu xodimning 2023 yildagi mehnat ta'tili uchun ish yili 04.08.2022 yildan 04.08.2023 yilgacha deb hisobga olinadi.

TA'TIL OLISH HUQUQINI BERADIGAN ISH STAJI

Amaldagi Mehnat kodeksining 226-moddasasida har yilgi mehnat ta'tili olish huquqini beradigan ish stajini hisoblab chiqarish tartibi belgilangan.

Har yilgi asosiy mehnat ta'tilini va bitta tashkilotda yoki tarmoqda ko'p yillik ish staji uchun qo'shimcha ta'til olish huquqini beruvchi ish staji jumlasiga quyidagi kiradi:

ish yili davomida haqiqatda ishlangan vaqt; xodim haqiqatda ishlangaman, lekin mehnat ta'g'risidagi qonunchilikka va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlariga, mehnat shartnomasiga muvofiq uning ish o'rni (lavozimi) saqlangan vaqt, shu jumladan, har yilgi mehnat ta'til vaqt, dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari hamda qonunchilikda belgilangan boshqa davrlari;

mehnat shartnomasi qonunga xilob ravishda bekor qilingan, xodim boshqa ishga o'tkazilganda yoki u ishdan chetlashtirilganda qonunchilikka va mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlariga, mehnat shartnomasiga muvofiq uning ish o'rni (lavozimi) saqlangan vaqt, shu jumladan, har yilgi mehnat ta'til vaqt, dam olish kunlari, ishlanmaydigan bayram kunlari hamda qonunchilikda belgilangan boshqa davrlari; agar tibbiy ko'rikdan o'tmaslik yoki mehnatni muhofaza qilish sohasida bilim va ko'nikmalar tekshiruvidan o'tmaslik xodimning aybisiz yuz bergan bo'lsa, majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagani yoki mehnatni muhofaza qilish sohasida o'quvda o'tmagani hamda bilim va ko'nikmalari tekshiruvdan o'tmagani xodim ishchan chetlashtirilgan davr;

agar xizmat tekshiruv natijalariga ko'ra, mehnat majburiyatlarning boshlangan qonunchilikda xodimning iltimosiga ko'ra beriladigan, ish yili davomida ikki haftadan oshmaydigan ish haqiqatda ishlangan vaqt;

jamaa kelishuvlarida, shuningdek, jamaa shartnomasida va ichki hujjatlarda, mehnat shartnomasining shartlarida nazarda tutilgan boshqa vaqt davrlari.

Har yilgi asosiy mehnat ta'tilini olish huquqini beradigan ish staji jumlasiga quyidagi kiritilmaydi:

xodim uzrli sabablaris ishda bo'lgan davrlari;

xodim ishchan chetlashtirilgan davrlar, bundan ushbu 226-modda birinchi qosimining to'rinchi, besinchi va oltinchi xatboshibarida nazarda tutilgan hollar mustasno;

bolani parvarishlash uchun beriladigan ta'tillar vaqt;

Shuningdek, ayrim hollarda ish beruvchi tomonidan xo'dimning homiladorlik va tug'ish ta'llilarida, mehnatga layoqatsizlik davrida bo'lgan vaqt yillik mehnat ta'tillarini hisoblashda inobatga olinmasligi kuzatilmoqda, ushbu holat mehnat qonunchilik hujjatlarini buzish hisoblanadi.

UZAYTIRISH YOKI BOSHQA MUDDATGA KO'CHIRISH

Xodimlar quyidagi hollarda har yilgi mehnat ta'tilini uzaytirish yoki boshqa muddatga ko'chirish huquqiga ega: vaqtinchida mehnat qobiliyatiz davrida;

homiladorlik va tug'ish ta'llilining muddati boshlanganda; har yilgi mehnat ta'tili o'quv ta'tiliga to'g'ri kelib qolganda; davlat yoki jamaat majburiyatlarning bajarayotganda, agar qonunchilikda bunday majburiyatlarning bajarish uchun ishchan etish nazarda tutilgan boshqa holarda;

jamaa kelishuvlarida yoki jamaat shartnomasida nazarda tutilgan boshqa holarda.

Xodim har yilgi mehnat ta'tiliidan foydalanishga to'sqinlik qiladigan, yuzaga kelgan sabablar to'g'risida ish beruvchini yozma shaklida xabardor qilishi

Biz organik, ya'nii tirk tabiatda uchraydigan muddalar bilan anorganik, ya'nii tirk bo'limgan minerallar, tuzlar, qazilma rudalarda uchraydigan nomoddalarini farqlay olamizmi?

Bu nima uchun kerak, degan savol tug'ilishi mumkin. Agar bu insonlar sog'lig'i uchun hayot va mamot masalasi bo'lsa-chi?

Masalan, aytaylik, inson organizmida yod yetishmasa, bo'qoq kasalligiga uchraydi. U odamni davolash uchun yong'oq po'sti, mag'zi yoki dengiz o'tlari (yodga boy bo'lgan), o'zimizda uchraydigan, tarkibi yodga boy bo'lgan "qo'ytikan" dan foydalansila, ular kimyoiy, termik ishlolvlsiz qo'llanilsa, yaxshi natija berishi mumkin. Lekin bu davolashda anorganik muddalar, ya'nii turli kimyoiy yo'llar bilan olingan tabletka, preparatlar, tuzlar, foydal qazilmalar tarkibida uchraydigan yod moddasidan foydalansila, ular aks ta'sir qilib, yomon natijalarga olib kelishi mumkin.

Chunki ular odam organizmiga kirkandan so'ng erib, singib ketmasdan, organizmdagi kichik soch tolaasidek ingichka qon kapillyarlariga tiqilib qolib, qonning asosiy vazifasi, ya'nii tanani oziqilantirish va tomirlarda qolgan foydasiz cho'kindilarni qaytib olib ketib, organizmning tozalanishiga to'sqinlik qiladi. Buning natijasida esa har xil organlar: buyruk, jigar, o'tqopi va har xil bezlarda tosh hosil bo'lishi, qon bosimi ko'tarilishi, qandli diabet, oyoq va qo'llarda og'riq paydo bo'lib, harakatlar cheklanishi kabi kasalliklar kelib chiqadi.

Tanqli amerikalik gerontolog olim Pol Bregg inson salomatligini saqlash yo'lida ancha ko'p tadqiqotlar olib borgan, dunyoning turli mamlakatlarda bo'lgan va aholining turmush tarzi, qanday va qaysi moddalarni iste'mol qilishi, necha yil yashashi to'g'risida ma'lumotlar to'plagan.

Pomidor italyancha "Romodoro" so'zidan olingan bo'lib, "oltin olma" degan ma'noni anglatadi. Pomidor tarkibida o'rtacha 1,5 foiz atrofida oqsil, 2 foizdan ko'proq kletchatka, 5-6 foiz atrofida uglevodilar mavjudligi hisobga olinsa, bu sabzavot yuqori energetik qlymatiga ega emas. Lekin pomidor biologik faol muddalariga boy. Pomidorda uchraydigan ana shu biologik faol muddalar turkumiga karotinoidlar, vitaminlar va mineral muddalar kiradi. Mana shularning o'zi pomidorning inson uchun juda muhim sabzavot ekanligidan dalolat beradi. Biz esa pomidorning karotinoidlar manbai ekanligi va uning inson salomatligini saqlashdagi o'rni haqida ba'zi mulohazalarini keltiramiz.

"Oltin olma"ning foydali xususiyatlari

Karotinoidlar meva va sabzavotlarga sariq-pushiti, ba'zan qizil rang beruvchi bo'yoq muddalari hisoblanadi. Meva-sabzavotlar tarkibida eng kop uchraydigan karotinoidlarga karotin, likopin, ksantofillar kiradi. Shularidan pomidor tarkibida asosan karotin va likopin uchraydi. Yaxshi pishib yetilgan pomidoring 100 gramida o'rtacha 0,6-0,7 milligramm karotin, 4,5-5,5 milligramm likopin bor. Pomidorning qizil rangi uning tarkibida likopin pigmenti borligidan dalolat beradi. Likopin inson organizmida karotin singari A vitaminiga aylanmasa-da, muhim funksional ahamiyatga ega. Likopinning eng muhim xususiyatlardan biri uning yuqori darajada antioksidantlidir. Likopinning ana shu xususiyati inson organizmida hujayralar qarishining oldini oladi va



yurak qon-tomir kasalliklarining rivojlanishiga qarshi ta'sir ko'rsatadi.

XXI asrning boshlarida Garvard universiteti olimlari erkaklarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida likopin prostat sararoni kasalligini sezilarni darajada kamaytrishini aniqladi.

Katta yoshdagagi odamlar organizmi uchun likopinning bir kunlik me'yori 5 milligramdan 10 milligramgacha bo'ladi.

Yosh bolalar uchun 3 milligramm qilib belgilangan. Agar kishi kuniga 150-180 gramm yaxshi pishib yetilgan qizil yoki pushti-qizil pomidor iste'mol qilsa, organizm talab qiladigan kunlik me'yorning 80-90 foizini qondirgan hisoblanadi.

R.NORMAXMATOV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori,
A.G'AFUROV,
katta o'qituvchi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lolar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Sadriddin KAMOLOV

Beshafqat o'lim tajribali shifokor, mon-hir jarroh Sadriddin Kamolovni oramizdan olib ketdi.

S. K a m o l o v 1946-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Ilmga chanoqligi, shifokorlikka qiziqishi tufayli shu kasbin tanlab, Samarqand meditsina institutida o'qidi 1970-yilda institutni tugatgach, Jizzax viloyatida internaturani o'tadi. So'ngra 1971-1974-yillarda Samarqandda gi onkologik xastaliklarni davolash shifoxonasida ishladi.

Keyinroq, ya'nii 1974-1982-yillarda Samarqand shahar shifoxonasi jarrohlik bo'limi mudiri sifatida samarali mehnat qildi. Qo'li yengil, tajribali shifokor sifatida el ichra hurmat qozondi, o'nlab yoshlarga



kasb sirlarini o'rgatdi. Shuning uchun Sadriddin Kamolovichni Samarqand meditsina instituti 2-kliniki jarrohlik bo'limi boshlig'i lavozimiga taklif etishdi. Ustoz ushbu shifo maskanida o'n yildan ortiq vaqt fidoyilik bilan ishladi. 2000-yilda esa kasb sirlarini yoshlarga o'rgatishni yiyatida Samarqand davlat tibbiyot universiteti jarrohlik kafedrasi dotsenti sifatida faoliyat yuritdi.

Ustoz qayerda ishlamasin, vazifasiga sadoqat bilan mehnat qildi, shogirdlarining kamoliga munosib hissa qo'shdidi. S.Kamolovning xotirasini uning hamkasblari va shogirdlari qalibda abadiy saqlanadi.

BIR GURUH SHOGIRDLLARI.

DA'VOLAR BO'LSA...
Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Ochilov Muinga (2021-yil 4-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'k chasi, 9-“B” uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Turabov Amin Muhammadiyevichga (2016-yil 27-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Mirzayarov Xursanga (2021-yil 9-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'k chasi, 9-“B” uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Zoxidov

yevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasida marhum Urnova Tadjiga (2013-yil 1-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Mirzayarov Xursanga (2021-yil 9-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'k chasi, 9-“B” uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Zoxidov

Umarkulga (2006-yil 26-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Axmonov Muxtor Usarovichga (2022-yil 3-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumanı Saroy ko'chasi, 15-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Davirova Anorolga (2023-yil 16-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 73-uy.

"Yegan taoming dori bo'lsin, yegan doring taom bo'lsin"

yoki organik va anorganik muddalar farqi xususida



ma'danli tuzli suvlarni ichishda ehtiyoj bo'lish kerakligini aytgan. Sababi o'sha ma'danlar anorganik muddalar bo'lsa, ehtiyoj bo'lish yoki ichmaslikni aytgan. U ichish uchun eng yaxshi suv, bu distillangan suv deb hisoblangan, chunki bunday suv organizmni turli chiqindisi, tuzdaridan tozalaydi, degan. Anorganik muddalar va organik muddalar bir xil element sifatida yozilgani bilan, tarkibi farq qiladi.

Buni bilmagan yoki e'tibor qilmagan ba'zi tibbiyot xodimlari, tabiblar kasallarga anorganik muddalardan foydalishni tavsiya qilishadi.

Bunday xodimlar organizmda har xil organlarda tosh va tuz hosil bo'lishini boshqa sabablardan deb hisoblaydi. Pol Bregg esa asosiy sababi tuz va shakar yoki tarkibida tuz va shakar bo'lgan muddalar bo'lishini yozgan.

Ulug' bobomiz Abu Ali ibn Sino ham o'z giyohlar, hayvon, parranda va asalari yordamida davolagan.

Shuningdek tabobatda, "Yegan taoming dori bo'lsin, yegan doring taom bo'lsin", degan oltin qoida bor.

Qishloq xo'jaligida meva-cheva, sabzavotlarni oziqilantirishda ham biologik o'g'itlar, go'ng, daraxtlar shoxlari, barglari, o'simliklar xashagi kabilardan foydalansila, ancha foydal bo'lar edi. Afsuski, ular yo yoqib yuboriladi yoki chiqindixonalarga tashlanadi.

Qurbanali HASANOV.

Xotira

Nasim Namozov bolaligidan adabiyotga mehr qo'ydi, o'zbek adiblarining asarlari ni sevib o'qidi. Adabiyotga bo'lgan ishtiyoq uning faoliyatida ham o'z aksini topdi.

Zulfiyadan minnatdorlik maktubi olgan tadqiqotchi

Uning asosiy mehnat faoliyati Samarcand iqtisodiyot va servis institutida kechdi. Dastlab tillarni o'qitish kafedrasini mudiri lavozimida ishladi. So'ngra institut "Kadrler uchun" ("За кадры") gazetasining muharriri vazifasini bajardi. 2009-2010-yillarda institutda chop etib kelinayotgan "Servis" jurnalining tahririyat a'zosi va muharriri sifatida faoliyat ko'rsatdi.

N.Namozov 1973-1974-yillarda o'zbek adabiyotining taniqli shoiri Hamid Olimjon ijodini o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot olib bordi. Toshkent, Moskva va Sankt-Peterburg shaharlar arxivlari materiallari asosida ma'lumotlar to'pladi. Bu ma'lumotlarni "Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilinib bordi. 1977-yilda O'zbekiston xalq shoiri Zulfiyaxonim Nasim Namozovichga maktab yo'lab, minnatdorchiligini izhor etdi.

1979-1984-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti tomonidan chop etilgan Hamid Olimjonning 10 jildlik akademik nashrini tayyorlashda Zulfiya, S.Asimov, K.Yashin, I.Sultonov, M.Qo'shjonov, S.Erkinovlar qatorida N.Namozov ham qatnashadi.

1980-yilda Nasim Namozovning "Adabiyotlar qardoshligi" nomli monografiysi nashr etildi. 1981-yilda esa Hamid Olimjon va Lev Tolstoy ijodi asosida qilgan ilmiy tadqiqoti natijasida unga filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasi berildi. Keininchalik dotsent unvoniga sazovor bo'ldi.

N.Namozov izlanishlari jarayonida ilmiy-publisistik yo'nalishdagi 160 dan ortiq maqolalari "Oktabr", "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar", "Sharq yulduzi", "Звезда Востока" kabi jurnallarda va ilmiy to'plamlarda chop etildi.

Nasim Namozov yarim asrlik faoliyatini ilmiy-pedagogik sohaga bag'ishladi. Mehнат jamoasida o'zing kamtarligi, mehnatsevarligi bilan hurmat-e'tiborga sazovor bo'ldi. Shuningdek, talabalarning sevimli ustozi sifatida o'zidan yaxshi nom qoldirdi. Ustozning oxirati obod, ruhi shod bo'lsin.

Leyla XUSAINOVA,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tillarni o'qitish kafedrasini dotsenti.

